

Shovdirov Toxirmalik Nafasovich
ToshDShI “Xorijiy mamlakatlar
iqtisodiyoti” kafedrası o’qituvchisi
Sharipov Quvondiq Baxtiyorovich
TDIU “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası
katta o’qituvchisi

ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASINING MAMLAKAT MILLIY **IQTISODIYOTIGA TA’SIR ETISH OMILLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon xo’jaligi tizimida xalqaro ishchi kuchi migratsiyasidagi zamonaviy tendensiyalar qisqacha tahlil etilib, unda O’zbekistonning xalqaro mehnat bozoriga integratsiylashuvi va ishchi kuchi migratsiyasining milliy iqtisodiyotga ta’siri hamda xalqaro tajribalar borasida qisqacha taklif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so’zlar: migratsiya, migratsion qoldiq, global migratsiya, immigratsiya, emigratsiya, “aqlning oqib o’tishi”,

Аннотация. В данной статье дается краткий обзор тенденций международной трудовой миграции, влияние миграции на развитие национальной экономики, а также даны краткие предложения и рекомендации по интеграции Узбекистана на международный рынок труда.

Ключевые слова: миграция, миграционные риски, глобальная миграция, иммиграция, эмиграция, «утечка умов».

Abstract. This article gives a brief overview of international labor migration trends in the global economy, the impact of migration on the development of the national economy, as well as provides brief recommendations on integration of Uzbekistan into the international labor market.

Key words: migration, migration rest, global migration, recipient, immigration, emigration, intelligence.

KIRISH

Globallashuv sharoitida xalqaro mehnat migratsiyasi mehnat bozorining ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda. Hozirda jahon iqtisodiyotining transformatsiyalashuvi sharoitida migratsiyaning yuqori darajadagi oqimi ma’lum bir hududdan boshqa bir mamlakat tomon yo’naltirilmoqda. Ishchi kuchi migratsiyasi donor mamlakatlar va ishchi kuchini qabul qilayotgan retsepiyent mamlakatlarga bir vaqtning o’zida ijobiy afzalliklarni ta’minlash bilan birga, ma’lum bir salbiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Mamlakatimiz so’nggi o’n yillikda xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlariga u yoki bu darajada ishtirok etib kelmoqda, mamlakatimizda aholi farovonligini ta’minlash, hayot faoliyatini yaxshilash hamda mamlakatimiz hududlarida ish o’rinlarini tashkil etish borasida qator vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda, bunday manzilli dasturlar sifati va ko’lamining yanada oshirilishi mamlakatimizning bosh vazifalaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bugungi kunda jahon xo’jaligining sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarilganligi bilan xarakterlanadi, iqtisodiyotning globallashuvi ko’p soha-tarmoqlarni qamrab olganligi sababli mehnat bozorida katta o’zgarishlar yuz bermoqda va shu sababdan ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlari yangicha namoyon bo’lmoqda, shu boisdan ham bu muammoni tadqiq qilish muhim va dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Mamlakatimizda yangi ish o’rinlarini barpo etish hamda qishloq hududlarida uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish dasturi zahirida juda katta ulkan hajmdagi ishlar mujassam ekanini, u o’n minglab yangi ish o’rinlarini yaratish, ana shu bunyodkorlik ishlarida mamlakatimiz aholisining faol ishtirokini ta’minlash imkonini berishni unutmaslik kerak. Biz mazkur dasturni amalga oshirish vazifasini o’z oldimizga qo’yar ekanmiz, bu bilan mamlakatimiz uchun dolzarb bo’lgan aholi bandligini ta’minlash, shu tariqa odamlarning daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish masalalarini hal etishni ko’zda tutamiz”¹.

¹ Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qa’tiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – T.: O’zbekiston, 2017. – B.27.

Globallashuv sharoitida xalqaro mehnat migratsiyasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga aylanib bormoqda bu dunyo hamjamiyati oldiga bir qator muammolarni dolzarb masala sifatida qoʻymoqda. Bu muammolar inson huquqlariga qaratilgan boʻlib; odam savdosi, ijtimoiy muammolar, ish haqi, munosib mehnat, oʻz mutaxassislik sohasi bilan shugʻullana olmaslik, kabi muammolarning yildan-yilga – oshib borish holatlariga olib kelmoqda. Bugungi kunda ayrim mamlakatlar davlatlararo migratsiyaga oid bir necha qonun-qoidalar va kelishuv bitimlarini imzolashgan Bunday kelishuvlar albatta mehnat migrantlarining ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy ehtiyojlari qondirilib ishchilarda erkinlik holatlari yuzaga kelish bilan birga mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli taʼsir oʻtqazadi. Ayni paytda mehnat migratsiyasi jarayonlarining tobora avj olib borayotganligiga qaramasdan dunyoning aksariyat mamlakatlarida migrantlarning qonuniylik makoni hali ishlab chiqilmaganligi yoki chegaralanganicha qolib ketayotganligi jahon hamjamiyatining bu muammoni qisqa vaqtlar bilan hal etish lozimligini koʻrsatadi. Mehnat migratsiyasini samarali ravishda tartibga solinmaganligi oqibatida, aksariyat holatlarda mehnat migrantlarning huquq va erkinliklarining taʼminlanmasligiga hamda noqonuniy migratsiya, odam savdosi va shu kabi noxush holatlarning yuzaga kelishiga sabab boʻlmoqda.


Tahlil va natijalar

Jahon xoʻjaligining rivojlanishi sharoitida bugungi global muammolardan biri, bu ishsizlik va migratsiya masalasi hisoblanadi. Jahon mehnat bozorining rivojlanishi va shakllanishi masalasiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, bu borada “Jahon mehnat bozori”, “Global mehnat bozori”, “Xalqaro mehnat bozori” kabi tushunchalarning nazariy asosiga eʼtibor qaratish, ularning nihoyatda global tus olganligi va ishchi kuchi migratsiyasini hozirda ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy jihatlarini oʻrganish nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega.

Global migratsiya ishchi kuchi bozorining yuzaga kelishi sabablarini iqtisodiy va siyosiy asosda koʻrish mumkin Iqtisodchi olimlar hozirda ishchi kuchi migrantlariga

“oʻziga xos tovar” sifatida qarash lozim deb hisoblaydi. Hozirgi kunga kelib xalqaro ishchi kuchi bozorida yuz berayotgan iqtisodiy tanglik bois, planetamizning aksariyat aholisi ishsizlik oqibatlarini boshdan kechirmoqda.

Zamonaviy transport va raqamli texnologiyalarning rivojlanib borishi odamlarning maʼlum bir chegara boʻyicha harakatlanishiga turtki boʻlmoqda. Hozirgi paytda mehnatga layoqatli ishchi kuchi migrantlarning umumiy soni 314 mln, kishini tashkil etib, bu esa dunyo aholisining 3,4 foizi xorijiy mamlakatlarda mehnat qilayotganligini koʻrsatadi. Xalqaro migrantlarning soni 1970 yildagiga qaraganda uch barobardan ortiqdir. (1-rasm)



1-rasm. Xalqaro muhojirlar soni dinamikasi (qochoqlar bilan qoʻshib hisoblaganda) (2017 y) ²

Jahon iqtisodiyoti tizimida migratsiya bilan bogʻliq murakkab tendensiyalar yuzaga kelmoqda, dunyo boʻyicha maʼlum bir ishchining bir chegaradan, ikkinchi chegaraga boʻylab migratsiya harakati ikki xil asosga koʻra yuz bermoqda. Birinchisi iqtisodiy sabablarga koʻra, mamlakat aholisi oʻz xohishiga koʻra daromadi yuqoriroq boʻlgan, xorijiy mamlakatlardan ish qidiradi, Ikkinchisi esa siyosiy sabablarga koʻra yaʼni mamlakatda notinchlik holatlari, urushlarning olib borilishi, yoki etnogenez sabablarga koʻra yuz bermoqda. 2009-2010 yy. Shimoliy Afrikada yuz bergan “arab bahori” voqealarining yuz berishi natijasida koʻplab mehnatga layoqatli arab yoshlarining Gʻarbiy yevropa yoki ayrim Yaqin Sharq mamlakatlariga oqib borishi, yoki ayni paytda Venusueladagi iqtisodiy inqirozlar siyosiy tus olib minglab, Venusuela fuqoralarini mamlakatni tashlab qoʻshni mintaqalarga chiqib ketayotganligini eʼtirof etishimiz mumkin, yoki AQShdagi vaziyatni kuzatadigan boʻlsak, Prezident Tramp siyosatiga asosan Meksikadan AQShga kirib keluvchi

² Global Employment Trends for Youth 2018. International Labour Organization. – Geneva: First published, 2018.– P. 63.

mehnat muhojirlariga qarshi devor tiklash va ular oqimiga chek qo'yish ishlari Meksika iqtisodiyotiga sezilarli ravishda o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, Oxirgi o'n yillikda siyosiy sabablarga ko'ra migrantlar oqimining kuchayib borishi, xalqaro ekspert mutaxassislar oldida turgan hal qilishi lozim bo'lgan, jiddiy masalalardan biridir. Ishchi kuchining bir hududdan, ikkinchi mamlakat tomon oqib o'tishi har ikki tomon uchun birdek foydali hisoblanadi. Arzon ishchi kuchini qabul qiluvchi sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar byudjetida moliyaviy mablag'larni tejab qolish imkoni tug'ilmoqda, shuningdek xorijdan kelayotgan ishchilar bilan bir paytning o'zida yuqori malakali migrantlarning kelishini kuzatishimiz mumkin. Bunday mamlakatlar guruhiga AQSh, Germaniya, Fors ko'rfazi mamlakatlari, Singapur, Lyuksemburg kabi mamlakatlarda xorijiy ishchilarning iqtisodiyotdagi ulushi yuqorilab bormoqda, ammo chet ellik muhojirlarni arzon narxlarga ishlatishning salbiy tomonlari ham mavjud, sababi hozirgi paytda Rossiya Federatsiyasi, G'arbiy yevropa kabi mamlakatlarda tug'ilish darajasining pasayib borishi yoki Fors ko'rfazi mintaqasida esa, mahalliy aholining ko'plab og'ir mehnatlarni talab etuvchi ishlarda ishlamasligini hisobga olsak, bu davlatlarda xorijiy ishchilarga nisbatan bog'liqlik darajasi saqlanib qoladi, 2017 yilning yakunlariga ko'ra dunyo bo'yicha migrantlar tomonidan 613 milliard AQSh dollari miqdorida pul mablag'lari o'z vatanlariga jo'natildi. Bu turdagi mablag'larning to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishi donor mamlakatlar aholisining bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etmoqda. Hozirgi paytda jahon migratsiya jarayonlari tizimida murakkab vaziyat yuzaga kelmoqda sababi 2017 yilning yakunlariga ko'ra iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra, 68,5 milliondan ortiq kishi bir hududdan, ikkinchi hududga ko'chib o'tgan, shu jumladan 25,4 millioni qochqinlar, 3,1 millioni ishsiz ayni paytda xorijda hech qanday sohada ishlamayotgan va yangi ish joyini kutayotgan fuqoralar va 40 millioni boshpanasiz fuqoralar hisoblanadi.

Hozirda ishchi kuchining eng katta oqimini beshta hudud misolida ko'rishimiz mumkin bular, AQSh, Yevropa, Rossiya, Fors ko'rfazi mamlakatlari va Turkiya tomon yo'naltirilmoqda. O'zbekiston respublikasi ham ishchi kuchini eksport qiluvchi kichik donor mamlakatlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston ishchi kuchini faol ravishda eksport qiluvchi va aholi soni tez o'sib borayotgan mamlakatlardan hisoblanadi. Hozirda mamlakatimiz aholisi 33 million kishiga yetdi, tug'ilish ko'rsatgichi 1,7 % ni tashkil etadi. Mamlakatimizning mehnatga layoqatli aksariyat ishsiz aholisi asosan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Fors ko'rfazi mamlakatlari, AQSh va Turkiya Respublikasi kabi mamlakatlarda ko'pchilikni tashkil etmoqda. Migratsiya saldosi minus 20,6 ming kishini tashkil etadi. Birgina Rossiya Federatsiyasida 1,8 milliondan ortiq ishchi migrantlarimiz mehnat qilmoqda, Ulardan mamlakatimizga kelayotgan pul tushumlari 2,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etmoqda. Hozirgi paytda yuqori tajribaga ega bo'lmagan mamlakatimiz migratsiyasini tartibga solish uchun xorijiy tajriba nihoyatda zarurdir.

O‘zbekistonda migratsiya jarayonlarini tartibga solishda Turkiya tajribasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaymiz, Turkiya hozirda o‘zining iqtisodiy salohiyati bilan nafaqat Yaqin sharqda, balki barcha musulmon va turkiy mamlakatlari olamida iqtisodiy salohiyati eng yuqori bo‘lgan mamlakatdir. Hozirda Turkiya Respublikasi o‘zining iqtisodiy nufuzi bo‘yicha dunyoning 16-inchi, mamlakati hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya hamkorligi oxirgi yillarda sezilarli ravishda o‘tib, Turkiya bizning tashqi savdomizda muhim to‘rtinchi mamlakatga aylandi. Turkiya va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi tashqi savdoning umumiy aylanmasi 2171,8 million AQSh dollarini tashkil etib, O‘zbekistonning hamkor mamlakatlari orasida Turkiya 6,4 % ulushga ega, Turkiya Respublikasi 1950 yillardan boshlab ishchi kuchini faol ravishda eksport qilgan mamlakatlardandir. Turkiyalik migratsiya bo‘yicha tadqiqotchi Ali Berkelning fikriga ko‘ra, Turkiyada migratsiya jarayonlari 50 yillik vaqt oralig‘ida, uch bosqichli evolutsion davrni bosib o‘tdi.

Dastlab Turkiyada ichki migratsiya rivojlanib, asta-sekinlik bilan turk fuqoralari Yevropa mamlakatlari tomon harakat qildi. Natijada bir paytlar past malakali ishchi kuchi migrantlariga ega bo‘lgan Turkiya endilikda yuqori malakali ishchi kuchi migrantlari, xorij va mahalliy bozorda firma, qurulish shirkatlari va yirik kompaniyalarga asos sola oldi. Hozirda Turkiya Respublikasi bir paytning o‘zida ham ishchi kuchini eksport va import qiluvchi mamlakat hisoblanadi.

Turkiya mutaxassisleri xalqaro mehnat bozorida ishchi kuchi migratsiyasini tartibga keltirishda katta tajriba va bilimga ega hisoblanadi. Ular o‘zining turk fuqoralarini xorijda samarali mehnat qilishiga huquqiy va ijtimoiy jihatdan qulay shart-sharoitlarni yaratib bera olgan kam sonli mamlakatlardandir.

Shu boisdan ham xalqaro mehnat bozorida faol bo‘lgan, O‘zbekiston ishchi kuchi bozorini tartibga keltirish hamda ular faoliyatini bir tizimga solishda Turkiya tajribasini o‘rganish maqsadga muvofiq, Turkiya yuqorida aytganimizdek mehnat migrantlaridan unumli foydalangan va ular tomonidan jo‘natilgan kapitallarni eng samarali yo‘llar bilan mamlakat milliy iqtisodiyotiga tadbiiq qilgan mamlakatdir. Ularning tajribalarini quyidagilarda ko‘rish mumkin;

- xorijda yashovchi turk fuqoralarining o‘z oilalari bilan birga yashashlari va farzandlarining majburiy ravishda ta’lim olishlarini ta’minlash va ularni ijtimoiy himoyalash ishlarni olib bordi va natijada xorijda bilim salohiyatini oshirgan turk fuqoralari o‘z orttirgan tajribalarini mamlakatga tadbiiq qila oldi;

- mehnat migrantlarining o‘z vatanlariga qaytib kelishlariga ko‘maklashishda xalqaro logistika va aeroport viza masalalari bilan bog‘liq barcha ishlarda mamlakat qulay imkoniyatlarni yaratib bera oldi;

- xorijdagi turk diasporalari bilan muntazam aloqalarini tiklashda muloqat maydonini yaratdi va natijada xorijdagi turk fuqoralari mamlakat qo‘llab-quvvatlovi sababli yirik tadbirkorlar, turli kasb egalari va investorlarga aylana oldi, ushbu

investorlar xorijda orttirgan kapitallarini oʻz mamlakatining milliy iqtisodiyotiga yirik miqdorda investitsiya qilmoqda;

- xorijdagi turk tadbirkorlarini qoʻllab-quvvatlash natijasida Turkiya tovarlari brendini rivojlantira oldi;
- Turkiya fuqorolari xorijdan joʻnatayotgan pul mablagʻlarini mamlakat milliy iqtisodiyotiga qayta investitsiyalash tizimini yoʻlga qoʻydi;
- xorijda malaka oshirgan turk fuqoralaridan oʻz mamlakatiga qaytib kelgach ularning xorijda orttirgan tajribalaridan samarali foydalanildi.

Mamlakatimizda ham mehnat bozorini tartibga solishda davlat darajasida jiddiy eʼtibor qaratilmoqda mamlakatimiz prezidenti tomonidan bu sohaga eʼtibor qaratilib bu boʻyicha 2018 yil 5-iyul kuni “Oʻzbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qonuni eʼlon qilinib bu sohada mavjud kamchiliklar qaytadan koʻrib chiqildi. Ushbu hujjatga muvofiq mamlakat hukumati tomonidan xorijga ishga joʻnatish va yollash tizimi faoliyatini yanada yaxshilash maqsadida Oʻzbekiston respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi bilan hamkorlikda ish olib boruvchi Oʻzbekiston fuqoralarini xorijga ishga joʻnatish va yollash boʻyicha ishlarni amalga oshiruvchi maxsus firma va tashkilotlar tuzish boʻyicha koʻrsatmalar berildi. Ushbu ish topishga koʻmaklashuvchi firma va tashkilotning zimmasida xorijga chiquvchi mehnatga layoqatli aholiga usha qabul qiluvchi mamlakatning tili va maʼlum bir maxsus qonunlari oʻrgatiladi ularni kasbga tayyorlash boʻyicha amaliy tavsiyalar berib boriladi. Bu kabi tashkilotlarning ishlashi xorijga ketuvchi ishchi migrantlarning mehnat huquqlari buzilishi va sogʻligʻi bilan bogʻliq bir qator ijtimoiy muammolarni hal etadi. Tabiiyki 2 millionga yaqin xorijga ketgan ishchi migrantlarga iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy yordam koʻrsatish birgina tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligiga bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi tabiiy agar raqamlarga eʼtibor beradigan boʻlsak, 1996 yilda tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan xorijiy davlatlar va kompaniyalari bilan hamkorlikda jami 13 ta shartnoma imzolangan boʻlsa, 2006 yilga kelib, bular soni 32 taga yetdi, 2012 yilda 62 shartnoma imzolanib, 2017 yilda esa bor yoʻgʻi 15 ta shartnomani tashkil etmoqda. mamlakatimizda xorijda mehnat qiluvchi fuqorolari soni agentlikning rasmiy stasitikasiga koʻra, 2017 yilda 1,496 nafarni tashkil etmoqda ammo masalaning biz yana bir jihatiga eʼtibor qaratishimiz lozim bu statistika asosan Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya, Polsha, Yaponiya va AQShda mehnat qilayotgan Oʻzbekiston fuqoralarining maʼlum qismi kiritilmoqda lekin masalaning ikkinchi tomoni shuki, bu yerda norasmiy ravishda bir qator mamlakatlarda mehnat qilayotgan ishchi migrantlarning aniq sonini aytish murakkab boʻlib qolmoqda, ana shunday holatlarda yuqorida aytib oʻtganimizdek, tashqi bozorda fuqoralarning mehnat qilishiga koʻmaklashuvchi tashkilotlarning ish olib borishi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan

samarali hisoblanadi. Bunday ish topishga ko’ maklashuvchi tashkilot va firmalarning yuzaga kelishi yuqorida ta’kidlab o’tilgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal e’tishiga yordam beradi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlarda mehnat qilgan aholi soni dinamikasi

	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
O‘zbekistonning xorijda ishlovchi migrantlarning umumiy soni	4,00	3,353	2,026	5,612	3,589	4,851	3,589	3,371	3,103	2,753	1,496
Umumiy aholiga nisbatan % da	1,1	14,8	5,6	15,5	9,9	13,4	9,9	9,3	8,6	7,6	4,1

Manba: www.migration.uz

1-jadval ma’lumotlaridan shunday xulosalarga kelishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi oxirgi o’n yillikda xorijga eksport qilgan ishchi kuchi migrantlari 2007 yilda 1,1 mln kishi xorijiy mamlakatlarda mehnat qilib, bu ko’rsatgich O‘zbekiston jami aholisining 1,1 % ini tashkil etadi. Xalqaro mehnat tashkilotining ustaviga asosan agar mamlakatning mehnatga layoqatli 1 foiz aholisi agar mamlakatdan tashqarida mehnat qilsa u holda ishchi kuchini eksport qiluvchi donor mamlakat hisoblanadi, 2008 yilda 3,353 ming kishi xorijda mehnat qilgan bo’lsa, bu ko’rsatgich umumiy aholisining 14,8 % ini tashkil etib bir yilda bu ko’rsatgich 13 barobarga oshgan, tabiiyki bunday o’sish mamlakatimizga xorijda mehnat qilayotgan ishchilardan kelayotgan pul o’tqazmalariga ham o’z ta’sirini o’tqazgan. Ishchi migrantlarning eng katta oqimi 2010 yilda ro’y bergan, ushbu yilda jami 5,612 mln kishi xorijda mehnat qilgan bo’lib, bu umumiy aholimizning 15,5 foizini tashkil etib, bu ko’rsatgich 2017 yilga kelib, kamayish tendensiyasiga ega ushbu yilda jami aholining 1,496 ming kishi umumiy aholining 4,1 % i, xorijiy mamlakatlarda mehnat qilmoqda. Bunday tendensiyaning (2010 yil) yuzaga kelishi mamlakat milliy iqtisodiyotiga ijobiy holatlar bilan birga mamlakatda bir qator ijtimoiy, demografik muammolarni ham yuzaga keltiradi, sababi umumiy aholining 15,5 foizi mamlakat tashqarisida mehnat qilishi har qanday mamlakat milliy iqtisodiyoti uchun salbiy holatdir. Xalqaro mehnat tashkilotining bayonotlariga ko’ra O‘zbekiston 2025 yilga borib ham, mehnatga layoqatli ishchi migrantlarni faol ravishda eksport qiluvchi davlatlar qatorida saqlanib qoladi. Mamlakatda mavjud ishsizlik masalalari hal etilmas ekan, mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu xorijda mehnat qilayotgan migrantlarni ijtimoiy, huquqiy jihatdan qo’llab-quvvatlash zarurligini ko’rsatadi.

Jahon xo’jalik amaliyotida to’plangan tajribalardan respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish O‘zbekiston bozor munosabatlariga o’tish modelining ustuvor yo’nalishlaridan hisoblanadi. Xususan, Turkiya Respublikasi migratsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga

solish boʻyicha qator ijobiy tajribaga ega boʻlib, mazkur tajribani Oʻzbekistonda qoʻllash tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim rol oʻynashi mumkin.

Turkiya Respublikasi migratsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish tajribasidan foydalanishda ushbu mamlakat va Oʻzbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi umumiy jihatlar muhim oʻrin tutadi. Maʼlumki, Oʻzbekiston ham, Turkiya kabi mehnat resurslariga boy mamlakatlar hisoblanadi. Ayni vaqtda mazkur mamlakatlarda aholi tabiiy oʻsish surʼatlarining yuqoriligi har yili minglab yangi ish oʻrinlarini yaratishni talab etadi. Biroq ichki investitsiyalar yetarli boʻlmagan sharoitda ushbu masalani hal etish ancha mushkul boʻlib, ishchi kuchini eksport qilish orqali birinchidan, bandlik muammosini qisman hal etish, ikkinchidan, xorijda ishlayotgan fuqarolar tomonidan oʻtkaziladigan pul oʻtkazmalari hisobiga tashqi savdo balansini yaxshilash, uchinchidan, kishilar turmush farovonligini oshirish imkoniyati paydo boʻladi.

Bu sohada Turkiya tajribasi eʼtiborga molik boʻlib, mamlakat valyuta tushumlarining katta qismi aynan xorijda ishlayotgan turkiyaliklar pul oʻtkazmalari hisobiga shakllanadi. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, Turkiyada ishchi kuchi eksportini amalga oshirishning qonuniy asoslari yaratilgan. Turkiya qonunchiligiga muvofiq, fuqarolarning xorijga borib ishlashlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan va har bir fuqaro mamlakatdan tashqarida mehnat faoliyati bilan shugʻullanish, ish izlash va ishga joylashish huquqiga ega. Ishchi kuchi eksporti bilan odatda davlat va xususiy korxonalar shugʻullanadi. Ushbu korxonalarning asosiy vazifasi ishchilarni potensial xaridorlar bilan tanishtirish va ularning huquqlarini himoya qilishdan iborat.

Oʻzbekiston Respublikasida ishchi kuchi eksportining Turkiya tajribasini qoʻllash, bir tomondan, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining oshishiga, ikkinchi tomondan, tashqi iqtisodiy faoliyat tarkibining takomillashuviga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bunday amaliyotni qoʻllash uchun respublikamizda real shart-sharoitlar mavjud boʻlsa-da, ulardan foydalanish talab darajasida emas. Mamlakatimizda ishchi kuchi eksportini amalga oshirish uchun tashkiliy-huquqiy masalalarning etarli darajada yoʻlga qoʻyilmaganligi, mehnat migratsiyasi boʻyicha potensial hamkor-mamlakatlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarning kam oʻrganilganligi mavjud imkoniyatlardan toʻliq foydalanishga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Shu munosabat bilan ishchi kuchi eksportini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish, mehnat resurslari migratsiyasi boʻyicha potensial hamkor mamlakatlar mehnat bozorini oʻrganish bugungi kundagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ishchi kuchi eksporti boʻyicha Turkiya va boshqa mamlakatlar tajribalarini tadqiq etish natijalari shuni koʻrsatadiki, ishchi kuchi eksporti siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat boʻlishi lozim:

- xorijda mehnat faoliyatini olib borayotgan ishchilar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;

- ishchi kuchi eksportiga yoʻnaltirilgan dasturlarni amalga oshirishda umumdavlat manfaatlariga rioya qilish;

- ishchi kuchi eksporti oqimini mamlakatning ijtimoiy-demografik va iqtisodiy holati va rivojlanishi, tabiiy-iqtisodiy hamda ekologik sharoitlarini hisobga olgan holda tartibga solish;

- xorijga ishlash uchun ketayotgan fuqarolar va uning oilalarini ijtimoiy himoyalash;

- ishchi kuchi eksporti siyosatini xalqaro standartlar va milliy qonunchilik tamoyillari bilan uygʻunlashtirish va h.k.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, ishchi kuchi eksportini davlat tomonidan tartibga solish maʼmuriy-buyruqbozlik va taʼqiqlash tadbirlariga asoslanmasligi lozim. Bunday usulning maqsadga muvofiq emasligini jahon amaliyoti va yaqin oʻtmish tajribamiz yaqqol koʻrsatdi.

Ishchi kuchi migrantlari va davlat oʻrtasida boshqaruv hamkorlik shaffof mexanizmi amalga oshirilishi kerak, xorijiy davlatlarga chiqib ketayotgan vatandoshlarimizga nisbatan quyidagi shart-sharoitlar yaratib berilishi lozim deb hisoblaymiz:

- Oʻzbekiston fuqoralari koʻpchilikni tashkil etgan mamlakat hududlarida migratsiya ishlariga oid turli agentliklar va firmalar ochish orqali xorijdagi ishchilarimiz bilan bevosita hamkorlikni olib borish, ular faoliyatini huquqiy jihatdan takomillashtirish zarur;

- xorijdagi ishchi migrantlarimizning oylik ish haqlarini qayta investitsiyalash tizimini ishlab chiqish;

- chet –eldagi vatandoshlarimizning savodxonlik yaʼni til bilish darajasi va u mamlakatda mavjud qonunlardan yetarlicha xabardor qilish va qayta oʻqitish tizimini takomillashtirish kerak;

- Oʻzbekiston fuqoralarining xorijda ishlab topayotgan pul mablagʻlarini bir qismini, xususiyl yoki davlat sektoridagi ishlab chiqarish suʼyektlariga jalb etish natijasida, xorijdan qaytib kelgach esa oʻzi investitsiya kiritgan suʼbyektda ishlash imkoniyoti yuzaga keladi;

- Janubiy Koreya tajribasi kabi mamlakatimizning xorijdagi fuqoralari usha davlatdan turib jamgʻarib boriladigan pensiya tizimiga pul mablagʻlarini yigʻib borishi maqsadga muvofiq, natijada esa kelajakda qarilik hayotini sugʻurtalash imkoniyoti yuzaga keladi;

- Tashqi mehnat masalalari agentligi, Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qoʻmitasi, Oʻzbekiston havo yoʻllari milliy aviakompaniyasi va xorijiy mamlakatlar faoliyatiga bogʻliq boʻlgan migratsiya tashkilotlari va firmalari

oʻrtasida korporativ hamkorlik olib borish va mutassadi tashkilotlar mamlakatimizdan chiqib ketayotgan fuqoralarning maʼlumotlarini ochiq-oshkora tarzda yuritishi maqsadga muvofiq;

- yurtimiz fuqoralarining huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida ozi ketayotgan mamlakati haqida ayrim maʼlumotlarga ega boʻlishi, qonunlaridan qisman boʻlsada xabardor boʻlishi, oʻzbekistonda mavjud yuqorida sanab oʻtgan tashkilotlarimiz mutaxassislari tomonidan xorijga joʻnab ketayotgan fuqoramizga usha davlat haqida qisqacha maʼlumot beruvchi brashuralarning chop etilishi, eʼlon va shunga oʻxshash maʼlumotlarning taqdim etilishi ahamiyatlidir;

-har qanday xorijga ketuvchi vatandoshimizga viza berish tartibida uning maqsadliligi, aniqlanishi zarur, sababi hozirda xorijga ketuvchi noqonuniy migrantlarimiz turist sifatida ketayotganini maʼlum qilishadi va mamlakatdan chiqib ketib yillar davomida yurtimizga qaytib kelmaydi, natijada mehnat bozorida faol malakali mutaxassislarning chiqib ketishi oldi olinadi;

- chet-elga ketayotgan mamlakatimiz ishchilari haqida usha ketayotgan manzildagi elchixona xodimlari, migratsiya agentliklari xabardor boʻlishi maqsadga muvofiq sababi, yuzaga keladigan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga duch kelgan yurtimiz fuqoralariga usha yerdagi mutassadi tashkilotlar tomonidan yaqindan koʻmak berish ishlari amalga oshiriladi va hakazo.

Yuqoridagi tajribalarni umumlashtirgan xolda quyidagicha xulosalarga kelishimiz mumkin. Yosh aholiga ega boʻlgan, Oʻzbekiston respublikasi hozirda xorijdagi vatandoshlaridan kelayotgan pul kapitallarni mamlakat milliy iqtisodiyotiga qayta investitsiya qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarida mamlakatimizning xorijda mehnat qilayotgan vatandoshlarimizni qayta oʻqitish ular malakasini oshirish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy qoʻllab-quvvatlashda. Oʻzbekistonning Turkiya kabi yuqori salohiyatli mamlakatning tajribalari va bosib oʻtgan yoʻllari nihoyatda zaruriy ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston xalqaro migratsiya aloqalarining istiqbolda yanada rivojlantirishdan manfaatdor. Mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish, tashqi bozorlarda mahsulotlar raqobatbardoshligini yuksaltirish xalqaro hamkorlikni mustahkamlaydi va xalqaro mehnat migatsiyasining faollashuviga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining “O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qonuni
2. Bauer, T. & Zimmermann, K. Integrating the East: The Labor Market Effects of Immigration / American Institute for Contemporary German Studies, 1995. Papers 5. – P.32-43
3. World Migration Report. Migrants and Cities: New Partnerships to Manage Mobility. – Geneva, Switzerland, 2014-2017.
4. Global Employment Trends for Youth 2015 Scaling up investments in decent jobs for youth international labour office. – Geneva, 2017 Jim Kreyn. – P. 145-149
5. Steven Wright Rudenko, G. G. Ijevsk, J. M. Borxas, T. N. Bauer, K. U. Zimmermann. 2014. – P. 124-126
6. www.IMO.org – Xalqaro mehnat tashkilotining rasmiy sayti